

TURIZMDA OILAVIY SAYOHAT QILUVCHILAR UCHUN QULAYLIKlar YARATISH

Ergasheva Nozima Sherzod qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti Turizm kafedrasи.

Research methodology



Annotatsiya: Bu maqolada oilaviy sayohat uyshtirganda yosh farzandi bor ota-onalar duch keladigan muammolar ko'rib chiqilgan va bu muammolarga yechim izlab, zaruriy sharoitlar yaratish kerakligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oilaviy turizm, onalar, go'daklar, yosh farzand, "baby care corner", bolalar aravachasi, kids club, mehmonxona

Tadqiqot turi: Tavsifiy, tavsiyaviy, solishtirma.

Introduction

Hozirgi kunda turizm dunyoda jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir. O'z navbatida turizm davlat iqtisodiyotining o'sishida katta rol o'yamoqda. Uni yanada rivojlantirish bugungi kun talabi bo'lib qolgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 5 – yanvardagi PQ – 405 son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bunga yoqrin misoldir.[1]

Sayohat qilish insonning dunyoqarashini o'stiradi, yangiliklar, yangi anglashlar oladi, yangi xalqlar ularning urf-odatlari, hayot tarzini o'rganadi. Bizning yurtimizda ommalashayotgan turizmning bir turi oilaviy turizmdir. Toshkent shahri va viloyatlarga oila a'zolari bilan birgalikda tashrif buyuruvchilar soni ortmoqda. Mehmonxona, saylgohlar va shahar ko'chalarida sayohatchilar uchun qulayliklar yaratish, ularni yana qayta sayohatlar qilishga undaydi. Yurtimizda sayohatchilar mazmunli va unutilmas sayohat qilishlari uchun bir qancha sharoit va qulayliklar qilingan. Oilaviy tashrif buyuruvchilar orasida go'dak yoki yosh farzandi borlar ham yo'q emas. Bularni hisobga olgan holda ular uchun ham bir qancha sharoitlar yaratish kerak.

Problem Statement

Yuqorida ta'kidlangandek, oilaviy tashrif buyuruvchilar uchun qulaylik va sharoitlar yetarli ammo, oilaning eng yosh a'zolari – go'dak va 5 yoshgacha bo'lган bolalar va ularning onalari uchun ayni kerakli bo'lган ba'zi sharoitlar tashkil etilmagan. Xususan, mehmonxonalarda "connecting room" turidagi xonalarni yo'lga qo'yish, mehmonxonadan sayr uchun chiqmoqchi bo'lган ota-onalariga kichik yoshdagi farzandlari uchun bolalar aravachasini taqdim etish, ko'ngil ochar maskanlar, istirohat bog'lari, ovqatlanish yerlarida "baby care corner" xonalarini tashkil etish

ularga eng kerakli bo'lgan va ayni vaqtida muammo bo'lib turgan ishlarini yengillashtiradi. Yosh farzandli onalar va bolalarga yaratilgan bunday qulayliklar oila bilan sayohat qilishni ko'paytiradi.

Preliminary literature review

Oilaviy turizmda yosh farzandi bilan tashrif buyuruvchilar uchun bir qancha sharoitlar yaratish haqida ko'plab masalalar ko'rib chiqilgan. Jumladan, Dilshoda Nafasova va Laylo Temirova o'zlarining "Oilaviy turizmni tashkil etishning nazariy asoslari" [2] maqolalarida bir nechta muammoli masalalarini yoritib chiqishgan. Ammo. yuqorida ta'kidlangan, sayohat davomida muammo keltirib chiqaradigan masalalarni bartaraf etishni taklif etishmagan.

Discussion

Butunjahon Turizm Tashkilotining formulasiga asosan, oilaviy turizm – bu 11 yoshgacha farzandlari bor bo'lgan oilaning ayohatidir. Oilaviy sayohatlar - oilaning (bolalari bor yoki bo'lmasagan) yoki bir necha oiladan iborat guruhning doimiy yashash joyidan tashqari boshqa joyga bo'sh vaqtlarida amalga oshiriladigan sayohati. Ammo oilaviy turizm deganda faqatgina bolalar bilan sayohat deb tushunish noto'g'ri, oilaviy turizm shakllari bi nechta bo'lib, ular quyidagilar :

1. Bolalarning soni bo'yicha
2. Oilaviy turistlarning tarkibi bo'yicha
3. Oilada yetakchilikning turiga ko'ra
4. Ijtimoiy tarkibiga ko'ra
5. Oilaviy tajribasiga ko'ra
6. Oiladagi munosabatlar va atmosferaning sifatiga ko'ra oilaviy sayohatlar

[3]

Oilaviy turizmda ona va bolalar uchun yaratilishi kerak bo'lgan sharoitlar:

- Maxsus "oilaviy tur paket"larini tashkil qilish
- Mexmonxonalarda farzanlari bilan tashrif buyuruvchilar uchun "connecting room" turidagi xonalarni tashkil etish
- Mehmonxonalarda kichik yoshdagi bolalar uchun "kids club" bolalar o'yin maydonini tashil qilish
- Ish yuzasidan majlis yoki konferensiyaga ketgan ota – onaning farzandiga qara b turadigan "enaga" ni mehmonxonalarda joriy etish
- Kichik yoshdagi farzandi bilan sayrga chiqib ketayotgan ota- onaga bolalar aravachisini taklif qilish
- Istirohat bog'lari, ko'ngil ochar joylar, ovqatlanish joylari, aeraport, vakzallard a onalarga qulaylik yaratish maqsadida "baby care corner" xonalarini barpo etish. U yerda yaratilgan sharoitlar onalarga farzandini tagligini almashtirish, ularni oziqlantiris hga katta yordam beradi

№	Zaruriy sharoitlar	Joylar	Izoh
1	Maxus ”oilaviy tur” tur paketlari	Tur agentstvalarda	Oilaviy tashrif buyuruvchilar uchun eng qulay va xavfsiz sayohatni amalga oshirish uchun mo’ljallangan
2	“connecting room”	Mehmonxonalarda	Ota-onalar farzandlarini xavfsiz va xotirjam his etishlari uchun va farzandlar ham doimiy nazoratda bo’ladi
3	Kids club	Mehmonxona va aeraportda	Bolalar kutish paytlarida chalg’ib biror nima bilan band bo’ladilar
4	Bolalar aravachasi	Mehmonxonalarda, istirohat bog’lari, ko’ngil ochar maskanlarda	Yosh farzandi bor ota-onalar uchun yaratilgan eng yaxshi qulaylik, sayohatga kelganda qidirib yoki sotib olishmaydi
5	Baby care corner	Aeraport, vakzal, ovqatlanish joylari, ko’ngil ochar maskanlar, istirohat bog’lari	Onalar uchun eng zarur bo’lgan joy. Bunday maxsus xonalarda onalar farzandini oziqlantiradi, tagligini almashtira oladi

Go’dak yoki yosh farzandi bor onalar uchun yaratiladigan bunday qulayliklar albatta, ota-onalarni farzandlari bilan bemalol, qiynalmasdan, muammolarga uchramay sayohat qilishlarini ta’minlaydi. Bu turdagи sharoit va qulayliklarni O’zbekistonning barcha shahar va viloyatlarida tashkil qilish orqali ichki hamda tashqi turizmni yanada rivojlantirish mumkin.

Demak, O’zbekistonda oilaviy turizmni rivojlantirsak, oilaviy dam olishga bo’lgan qiziqish ortib borishiga, xorijiy oilaviy turistlarni jalb qilinishiga, yangidan yangi obyektlar, dam olish maskanlari ko’payib borishiga zamin yaratgan bo’lardik.

Finfings

Men shu takliflarni amalda joriy etish uchun aholi o’rtasida jonli so’rov nomada o’tkazdim. So’rovnomada 90 % ayollar va 10 % erkaklar o’z javoblarini bildirib o’tishdi. Suhbat davomida shuni aniqladimki, aholi o’rtasida farzandlari bilan sayohat qiluvchi oilalar ko’pchilikni tashkil etadi.(1-rasm) Biroq, ular sayohatlari davomida yosh farzandlari uchun shaoitlar yetarli emasligi tufayli muammolarga uchrab turishar ekan.(2-rasm). Yuqoridaagi takliflarni amalda joriy etilsa, ular albatta farzandlari bilan sayohatlarini ko’paytirishar ekan.

Farzandingiz bilan sayohatga chiqqanmisiz ?	Sayohat qiyinchilik, vaziyatlarga kelganmisiz ?	davomida maummoli duch	Yuqorida aytib o'tilgan sharoitlar yaratilsa, farzandingiz bilan sayohatlarni tashlik etib turasizmi ?
Ha -100%	Ha – 95 %	Ha – 100 %	Yo'q – 0 %
Yo'q – 0 %	Yo'q – 5 %	Yo'q – 0 %	

So'rovnama Toshkent Shahrida o'tkazildi.

References

- [1] <https://lex.uz/docs/-4355407>
- [2] <https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-turizmni-tashkil-etishning-nazariy-asoslari/viewer>
- [3] <https://hotel-all.ru/uz/bulgaria/semeinye-puteshestviya-s-detmi-tury-otdyh-s-detmi-na-more/>